

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***



*(Narxlarni ro‘yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o‘tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o‘zgarib turadi. Mazkur ma’lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (**supermarket, minimarket, do‘konlardagi narxlar inobatga olinmagan**)).*

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2021- yil 7 - aprel kuni** o‘tkazilgan kuzatuv natijalari bo‘yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

Suyakli mol go'shti
45 000 so'mdan 67 000 so'mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, 1 kg suyakli mol go'shtining minimal narxi, Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori", Namangan shahrining "Namangan chorsu dehqon universal bozori", Urganch shahrining "Urganch markaziy dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan go'sht rastalarida qayd etilgan (45 000 so'm).

Suyakli mol go'shtining maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Mirobod dehqon bozori"da kuzatildi (xususiylar tadbirkorlar rastalarida 67 000 so'm). Shu bilan birga, mazkur bozorda tashkil etilgan arzonlashtirilgan rastalarda mol go'shti minimal 55 000 so'mdan sotilmoqda.



Qo'y go'shti
48 000 so'mdan 78 000 so'mgacha (kg)



Qo'y go'shtining minimal narxi (48 000 so'm) kuzatuv natijasiga ko'ra, Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan rastalarda ro'yxatga olingan.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Mirobod dehqon bozori"da (xususiylar tadbirkorlar rastalarida 78 000 so'm) kuzatildi. Shuningdek, ushbu bozorda qo'y go'shtining minimal narxi 60 000 so'mni tashkil etadi.



Kartoshka

2 800 so‘mdan 7 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori” da tashkil etilgan arzonlashtirilgan savdo rastalarida sotilayotgan, yirik bo‘lmagan kartoshkaning narxi minimal narx sifatida (2 800 so‘m) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Eski jo‘va dehqon bozori”da sotuvdagi saralangan kartoshkaning narxi maksimal narx sifatida (7 000 so‘m) qayd etildi. Ushbu bozorlarda arzonlashtirilgan rastalarda sotilayotgan yirik bo‘lmagan kartoshkani minimal 2 800 - 3 300 so‘m narxga xarid qilish mumkin.

Piyoz

1 000 so‘mdan 3 500 so‘mgacha (kg)



Piyoz mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”da (1 000 so‘m) ro‘yxatga olindi.

Maksimal narx sifatida esa Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Eski jo‘va dehqon bozori”da sotuvda bo‘lgan saralangan piyozning narxi kuzatildi (3 500 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorlarda piyozni minimal 1 500 - 1 800 so‘m narxga xarid qilish mumkin.



Sabzi

1 500 so‘mdan 4 000 so‘mgacha (kg)

Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Toshkent shahrining “Qo‘yliq dehqon bozori”da (1 500 so‘m) qayd etilgan.



Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori” hamda Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Eski jo‘va dehqon bozori”, “Farxod dehqon bozori”da sotuvdagi tozalangan va saralangan sabzining narxi maksimal narx sifatida (4 000 so‘m) qayd etildi. Shu bilan birga, ushbu bozorlarda sabzining minimal narxlari 2 000 – 3 500 so‘mni tashkil etadi.

Tuxum

7 000 so‘mdan 15 000 so‘mgacha (10 dona)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Buxoro shahrining “Buxoro markaziy dehqon bozori”, Yangiyo‘l shahrining “Ixtisoslashgan Yangiyo‘l shahar dehqon bozori”, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Qo‘yliq dehqon bozori”da arzonlashtirilgan tuxum rastalaridagi mayda tuxumning narxi minimal narx sifatida qayd etildi (7 000 so‘m).

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori”da qayd etilgan (yirik saralangan tuxum 15 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorda 10 dona mayda tuxumning minimal narxi 9 000 so‘mni tashkil etgan.



Guruch

5 000 so‘mdan 18 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”, Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”, Termiz shahrining “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”da (“Nukus-2” va boshqa mahalliy navli guruchlar 5 000 so‘m) qayd etilgan.



Maksimal narx esa, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori”, “Oloy dehqon bozori”da 18 000 so‘mdan kuzatildi (“Lazer” navli guruch). Shu bilan birga, ushbu bozorlarda guruchning minimal narxlari 6 000 so‘mni tashkil etgan.

O'simlik yog'i
12 000 so'mdan 23 000 so'mgacha (litrl)



O'simlik yog'ining kuzatuv natijasiga ko'ra minimal narxi Andijon shahrining "Yangi bozor dehqon bozori", Guliston shahrining "Guliston dehqon bozori" va Toshkent shahrining "Eski jo'va dehqon bozori"da (mahalliy paxta yog'i 12 000 so'm) kuzatildi.

Maksimal narxi esa, Chirchiq shahrining "Chirchiq dehqon bozori", Toshkent shahrining "Mirobod dehqon bozori", "Oloy dehqon bozori"da (kungaboqar yog'i 23 000 so'm) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlarda mahalliy paxta yog'ini 13 000 – 16 000 so'mdan xarid qilish mumkin.



Shakar

7 000 so'mdan 8 000 so'mgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga ko'ra minimal narxi Termiz shahrining "Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori", Toshkent shahrining "Eski jo'va dehqon bozori", "Oloy dehqon bozori", "Farxod dehqon bozori", "Qo'yliq dehqon bozori" va "Mirobod dehqon bozori" da (7 000 so'm) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori”, Buxoro shahrining “Buxoro markaziy dehqon bozori”, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”, Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”, Navoiy shahrining “Saxovat bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”, Samarqand shahrining “Siyob dehqon bozori”, Termiz shahrining “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”, Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”, Yangiyo‘l shahrining “Ixtisoslashgan Yangiyo‘l shahar dehqon bozori”, Farg‘ona shahrining “Farg‘ona shahar markaziy dehqon bozori”, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Farxod dehqon bozori”, “Qo‘yliq dehqon bozori” da (8 000 so‘m) kuzatildi.

Shuningdek, mazkur bozorlarda shakarni minimal 7 000 – 7 500 so‘m oralig‘ida ham xarid qilish mumkin.

Markaziy dehqon bozorlari kesimidagi batafsil ma’lumotlar quyidagi ko‘rinishda taqdim etilgan:



**O‘zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***

2021- yil 7 - aprel holatiga (1 kg so‘mda)

№	Bozorlar nomi		Suyakli mol go'shti	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 l.)	Shakar
1.	Nukus shahar “Nukus dehqon bozori”	min	45000	48000	3500	1800	1800	7000	5000	13000	7500
		max	61000	57000	5000	2500	3000	10000	13000	18000	8000
2.	Andijon shahar “Yangi bozor dehqon bozori”	min	50000	65000	4500	2000	2000	8000	7500	12000	8000
		max	58000	70000	5000	2500	2500	10000	16000	17500	8000
3.	Buxoro shahar “Buxoro markaziy dehqon bozori”	min	50000	55000	3500	1800	2000	7000	6000	14000	7300
		max	58000	57000	4500	2500	3500	10000	14000	20000	8000
4.	Jizzax shahar “Jizzax markaziy dehqon bozori”	min	50000	58000	3300	1500	2000	9000	5000	17000	8000
		max	60000	63000	4500	2000	3000	11000	12000	21000	8000
5.	Qarshi shahar “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”	min	55000	59000	4000	2000	3500	10000	5000	15000	7500
		max	58000	62000	5000	2500	4000	12000	13000	21000	8000
6.	Navoiy shahar “Saxovat” bozori	min	50000	55000	3400	1500	2500	8000	7000	13500	7300
		max	60000	62000	4500	2000	3000	11000	14000	20500	8000
7.	Namangan shahar “Namangan chorsu dehqon universal bozori”	min	45000	65000	3300	1500	2000	7500	6500	13000	7500
		max	55000	70000	5000	3000	3000	10000	17500	19000	8000
8.	Samarqand shahar “Siyob dehqon bozori”	min	55000	63000	3750	1500	2000	9500	7500	13500	7500
		max	62000	70000	5000	2500	2500	12000	16000	19000	8000
9.	Termiz shahar “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”	min	52000	60000	3500	1800	2500	10000	5000	13000	7000
		max	55000	65000	4500	2000	3000	10000	14000	19000	8000
10.	Guliston shahar “Guliston dehqon bozori”	min	52000	65000	3500	1000	2000	7500	6000	12000	7500
		max	60000	68000	4300	2000	3000	11000	13000	18000	8000
11.	Chirchiq shahar “Chirchiq dehqon bozori”	min	50000	55000	3500	1500	3000	9000	8500	16000	8000
		max	60000	65000	4000	2500	3500	12000	16500	23000	8000
12.	Yangiyo‘l shahar “Ixtisoslashgan Yangiyo‘l shahar dehqon bozori”	min	50000	55000	3800	1700	2200	7000	7000	15000	7200
		max	62000	70000	5000	2500	3000	11000	17000	22000	8000
13.	Farg‘ona shahar “Farg‘ona shahar markaziy dehqon bozori”	min	50000	63000	4000	1500	2000	9000	7000	14000	7500
		max	60000	68000	4800	2500	2500	11000	13000	19000	8000
14.	Urganch shahar “Urganch markaziy dehqon bozori”	min	45000	65000	4000	2000	2000	7000	6500	13500	8000
		max	62000	65000	5000	3000	3000	11000	12000	20000	8000
15.	Toshkent shahar “Eski jo‘va dehqon bozori”	min	46000	58000	2800	1800	2000	9000	6000	12000	7000
		max	65000	75000	7000	3500	4000	15000	18000	20000	7500
16.	Toshkent shahar “Oloy dehqon bozori”	min	55000	60000	3300	1500	2000	8500	6000	14500	7000
		max	65000	75000	7000	3500	4000	13000	18000	23000	8000
17.	Toshkent shahar “Farhod dehqon bozori”	min	46000	50000	3500	1800	3000	8000	6500	14000	7000
		max	65000	75000	6000	3000	4000	12000	17000	22000	8000
18.	Toshkent shahar “Qo‘ylik dehqon bozori”	min	51000	58000	3200	1500	1500	7000	6000	14000	7000
		max	63000	75000	5000	2000	3000	12000	16000	20000	8000
19.	Toshkent shahar “Mirobod dehqon bozori”	min	55000	60000	3000	1800	2500	8500	6000	13000	7000
		max	67000	78000	3800	2000	3000	12000	17000	23000	7500

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLARI** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.